


**ZULXUMOR MIRZAYEVA
KOMIL JALILOV**

ENGLISH: KEY TO SUCCESS



1

B1

B1+

B2

**ZULXUMOR MIRZAYEVA
KOMIL JALILOV**

**ENGLISH:
KEY TO
SUCCESS**

The Common European
Framework of Reference

C Proficient user	C2
	C1
B Independent user	B2
	B1
A Basic user	A2
	A1

**A Reference Book of
Grammar, Reading Comprehension
and Writing
for Exam Preparation**

**Part 1: THE OUTLINE OF ENGLISH
GRAMMAR**

**MUHARRIR
TOSHKENT
2014**

MUHARRIRLAR: **ANNA OLDFIELD**
Filologiya fanlari doktori, professor

ELVIRA URAYEVA
Pedagogika fanlari nomzodi

DILRABO ANDANIYOZOVA
Tilshunos

TAQRIZCHILAR: **MARINA UTESHEVA**
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar
Mahkamasi huzuridagi Davlat Test Markazi
Chet tillarni bilish va egallash darajasini
baholash boshqarmasi bosh mutaxassisi

NADEJDA NIKIFOROVA
Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya
Universiteti qoshidagi Shayxontohur
Akademik litseyi chet tillar kafedrasini mudiri

ISBN

**Barcha huquqlar amaldagi qonunlarga asosan
himoyalangan. Mualliflarning yozma ruxsatisiz qisman
yoki to‘liq nusxa ko‘chirish va ko‘paytirish taqiqlanadi.**

© Zulxumor Mirzayeva, Komil Jalilov, 2014

© «Muharrir» nashriyoti, 2014

INTRODUCTION

KIRISH

ВВЕДЕНИЕ

Mamlakatimiz mustaqil bo'lgan yillardan boshlab misli ko'rilmagan o'zgarishlarga yuz tutdi. Yangi davr yangi tafakkur, dunyoqarash sohiblari – iste'dodli yoshlarni shakllantirdi. Ular zamonamiz qahramonlari sifatida xalqaro maydonda ham har sohada yurtimiz sharafini himoya qilib, O'zbekistonning jahon sivilizatsiyasi rivojida munosib o'ringa ega mintaqa ekanligini isbotlamoqda.

Tabiiyki, yurtimizning umumjahon globallashuv jarayonlaridagi faollashuvi har jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlar tilini mukammal bilish va mana shu til vositasida ularning yutuqlariga hamohang bo'lish kabi holatlar bilan bog'liqdir.

Bugungi yosh avlodni xorijiy tillarda o'qitish, mazkur tillar mutaxassislari qatorida boshqa kasb egalarining ham chet tillarda erkin gapira olish qobiliyatlarini shakllantirish, turli yo'nalishlarda xalqaro aloqalar va hamkorlikni rivojlantirish asosida O'zbekistonning jahon miqyosidagi nufuzini yanada ko'tarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yilning 10 dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1875-sonli qarori qabul qilindi. Mazkur qarorning ijrosini ta'minlash maqsadida chet tillarini mukammal bilish va bilish darajasini baholashning milliy tizimini ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish chora-tadbirlari keng ko'lamda olib borilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 8 maydagi 124-qarori asosidagi "Uzluksiz ta'lim tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lim standarti"ning qabul qilinishi, ommaviy axborot vositalari - televideniye, radio, jurnal va gazetalarda chet tillarini, xususan, ingliz tilini o'rganishning turli usullari aks etgan ko'plab dasturlar, ruknlarning tashkil etilishi ham yurtboshimiz qarorlarining amaldagi ijrosi qay darajada tez va keng ko'lamda olib borilayotganligidan dalolatdir.

Ma'lumki, har qanday tilni mukammal bilish asosida tug'ma qobiliyat, iste'dod, mehnat va intilish bilan bir qatorda yaxshi manbalarga ega bo'lish ham muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda ingliz tili grammatikasini nazariy va amaliy tartibda olib borilishini ta'minlovchi juda ko'plab kitoblar, elektron qo'llanmalar mavjud. Mazkur darslik va qo'llanmalar kitobxonlarning ingliz tilidan bilim saviyalarini oshirish,

o'quvchilarni turli imtihon sinovlari (respublikamizdagi oliy o'quv yurtlariga kirish imtihonlari, Davlat Test Markazi tomonidan o'tkaziladigan chet tilini bilish darajasini baholash milliy testi, IELTS va TOEFL singari xalqaro imtihonlar va h.k.)dan qoniqarli natijalarga erishishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ammo, chet tillarni bilishga qo'yilayotgan bugungi talablar yangi shakldagi, yanada mukammal darslik va qo'llanmalarni yaratishga ehtiyoj tug'dirmoqda. Bizning nazarimizda, bu kabi manbalarni boyitish, hukumatimizning xorijiy tillarni o'qitishga qo'ygan talablariga javob bera oladigan, xorijiy til o'qitishning Yevropa standartlariga mos keladigan ingliz tili grammatikasini yaxlit, ma'lum ma'nodagi to'liq shaklda aks ettirgan, o'quvchilar qatorida mutaxassislarni ham nazariy, ham amaliy bilim tajribalarini shakllantirishga yordam beradigan, ayni paytda ularning so'z boyliklarini boyitishga, mustahkamlashga turtki beradigan darsliklarni nashr etish vaqti keldi, degan fikrdamiz. Mana shu fikr-mulohazalar asosida biz qo'lingizdagi "Key to Success" kitobini yaratish va nashr etishni maqsad qildik.

Mazkur qo'llanma Respublikamizning litsey va kollejlari hamda oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan, Yevropa Kengashining 2001 yilda qabul qilingan CEFR (Xorijiy tillarni bilishning Umumyevropa kompetensiyalari) asosidagi B1/B1+ va B2 darajasi talablariga javob bera oladigan o'quvchilar uchun mo'ljallangan. Shuningdek, kitobdan ingliz tili o'qituvchilari, mutaxassislar, mutaxassis bo'lmagan shaxslar hamda mustaqil o'rganuvchilar ham asosiy manba sifatida foydalanishlari mumkin.

"Key to Success" kitobi shu sohada yaratilgan darslik va o'quv qo'llanmalaridan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi:

1. Kitobda tilni o'rganuvchilar undan samarali muloqot vositasi sifatida foydalana olishi, mahalliy va xalqaro test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'ta olishi uchun zarur bo'lgan bilimlar majmui imkon qadar to'liq va tizimli ravishda berildi. Bunda O'zbekiston va Rossiyada nashr etilgan o'quv adabiyotlaridan tashqari, Yevropa hamda AQShda chop etilgan adabiyotlar tajribasiga ham tayanildi.

2. Kitob o'zbek, rus va ingliz tillarida bo'lib, o'zbek kitobxonlari qatorida rusiyzabon o'quvchi va mutaxassislar ham ingliz tili grammatikasini nazariy hamda amaliy yo'nalishda olib borish imkoniga ega bo'ladilar.

3. "Key to Success" kitobini yaratishda ingliz tili grammatikasiga endigina kirib kelayotgan yangi grammatik me'yorlarga ham tayanildi. Tildagi bu o'zgarishlar yurtimizda shu paytgacha nashr etilgan o'quv adabiyotlarida deyarli o'z aksini topmagan. Xususan, ingliz tilidagi zamonlar tizimi, modal fe'llar, artikl va predloglar, miqdoriy so'zlar, bog'lovchi so'zlar, qo'shma gaplarning ishlatilishiga oid mavzularni yoritishda ingliz tilidagi oxirgi o'zgarishlar ham asos qilib olindi.

B1/B1+va B2 darajalardagi til o'rganuvchilar og'zaki va yozma nutqda turli xil grammatik konstruksiyalarni, sodda va qo'shma gaplarning turli shakllarini hamda fikrning mantiqiy yaxlitligini ta'minlovchi grammatik vositalarni to'g'ri ishlata olishini ko'rsatishi lozim. Mazkur darslikda berilgan misollar zamonaviy og'zaki va yozma nutq me'yorlarini aks ettira oladigan manbalardan olingan. Bu o'quvchiga o'rganilayotgan grammatik hodisaning zamonaviy tilda qay shaklda ishlatilish zarurligini ko'rsatadi.

Kitob ikki qismdan iborat bo'lib, 1- qism ingliz tilining nazariy asosini tashkil etadi. Bunda ingliz tili grammatikasidagi alohida qoidalar va muhim istisnolar izohlar shaklida hoshiyaga chiqarilib, ularga alohida urg'u berildi. Har bir bo'lim yakunida keltirilgan umumlashtiruvchi jadvallar o'rganilgan grammatik qoidalarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Kerakli grammatik qoidani topishni osonlashtirish maqsadida kitobning oxirida grammatik qoidalarning indeksi keltirildi.

Ikkinchi kitob ingliz tili grammatikasining amaliy qismi bo'lib, o'rganilgan grammatik qoidalarni mustahkamlashga, ulardan og'zaki va yozma muloqotda samarali foydalanishga qaratilgan. Bundan tashqari, ikkinchi kitobda o'quvchilarning mahalliy va xalqaro test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tishlarini ta'minlovchi, xususan, IELTS va TOEFL singari xalqaro imtihonlarning yozish (Writing) va gapirish (Speaking) bo'limlarida o'rganilgan grammatikadan unumli foydalanishga qaratilgan mashqlar va testlar ham berildi. Bunday turdagi mashqlar yurtimizda nashr etilayotgan manbalarda ilk bora keltirilmoqda. Shuningdek, kitobda o'quvchining o'qish (Reading) ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar va test topshiriqlari ham aks etgan.

Mazkur kitobni yaratishda mualliflarning ushbu sohadagi ko'p yillik tajribalari, ijodiy faoliyati, ingliz tilini o'qitishdagi uzoq yillik ko'nikmalari muhim ahamiyat kasb etadi. "Key to Success" kelajakda ingliz tili o'qitishning bugungi talablariga javob bera olishiga, yangi

tipdagi milliy manba sifatida o'quvchilarning muvaffaqiyat kaliti bo'lishiga umid bildiramiz.

Har qanday bajarilgan katta ishlar kamchiliksiz bo'lmaganidek, mazkur kitob ham ayrim nuqsonlardan xoli emas. Shu sababli, mualliflar ishning sifatini ko'tarishga ko'maklashadigan har qanday tanqidiy fikr va mulohazalarni minnatdorchilik bilan qabul qiladi. Mulohazalaringizni quyidagi elektron manziliga yuborishingizni so'raymiz: khumor@rambler.ru; komil1@rambler.ru

Zulxumor Mirzayeva

Komil Jalilov

* * *

С обретением независимости в нашей стране произошли коренные изменения во всех отраслях. Новая эпоха сформировала представителей нового мышления - талантливую молодёжь. наша страна демонстрирует свою мощь во всех отраслях и принимает активное участие в процессах всемирной глобализации. Они, как герои нового времени, защищают честь нашей страны в международной арене и отстаивают достойное место Узбекистана в развитии мировой цивилизации.

Естественно, активное участие нашей родины во всемирных процессах глобализации связана с необходимостью знать языки развитых стран и приобщаться к достижениям мировой цивилизации через эти языки.

В целях обучения молодого поколения иностранным языкам, формирования навыков свободного общения на иностранных языках у специалистов других отраслей наряду со специалистами языков, еще большего содействия поднятию престижа Узбекистана в мировом сообществе через укрепление разностороннего международного сотрудничества, было принято постановление Президента Республики Узбекистан #1875 от 10 декабря 2012 г. "О мерах по дальнейшему совершенствованию системы изучения иностранных языков". Во исполнение задач, вытекающих из данного постановления, по всей стране осуществляются масштабные работы по разработке и внедрению национальной системы обучения иностранным языкам и оценки уровня владения ими.

В частности, утверждение постановлением Кабинета Министров Республики Узбекистан #124 от 8 мая 2013 г. "Государственного образовательного стандарта по иностранным языкам системы непрерывного образования", создание теле- и радиопередач и рубрик для поддержки изучения иностранных языков, в том числе, английского языка, в средствах массовой информации - радио, телевидении, газетах и журналах являются подтверждением широкого притворения в жизнь постановления главы нашего государства.

Как известно, в изучении любого языка, наряду с талантом и трудом, большую роль играет литература. На данный момент имеется множество пособий и электронных источников для теоретического и практического изучения грамматики английского языка. Эти источники играют важную роль в повышении уровня знания языка и успешной подготовки к различным экзаменам (вступительные тесты в ВУЗы республики, тесты на определение уровня владения иностранным языком, проводимые Государственным Центром Тестирования, международные экзамены как IELTS и TOEFL и т.д.). Однако, современные требования к уровню владения иностранными языками вызывают необходимость создания новых, более совершенных учебников и пособий. На наш взгляд, настало время издания учебников, отвечающих современным требованиям владения иностранным языком и европейским стандартам преподавания, а также, комплексно отражающих современную грамматику английского языка, способствующих как теоретическому, так и практическому владению языком и обогащению словарного запаса ученика. Эти соображения побудили нас к созданию и изданию данной книги – "Key to Success".

Данное пособие предназначен для учащихся лицеев и колледжей и студентов высших учебных заведений и соответствует уровням B1/B1+ и B2 по Общеввропейским компетенциям владения иностранным языком (CEFR). Также, книга будет полезной как основной источник для преподавателей английского языка, специалистов и неспециалистов, изучающих язык.

Книга "Key to Success" имеет следующие особенности, отличающие его от подобных учебников и учебных пособий:

1. В книге, по мере возможности, сделана попытка полно и систематически изложить комплекс знаний, необходимый для пользования языком как средством общения и для успешного прохождения местных и международных экзаменов. Для этого, наряду с книгами, изданными в нашей стране и в России, авторы опирались также на учебную литературу, изданную в Европе и США.

2. Книга издана на английском, узбекском и русском языках, что расширяет круг возможных пользователей и позволяет им пользоваться как узбекским, так и русскоязычным читателям.

3. В книге “Key to Success” учтены новые нормы и правила английского языка. Эти изменения, органично происходящие в языке, не учтены в учебной литературе, до сих пор изданной в нашей стране. В частности, мы опирались на новый подход в освещении таких тем, как система времен, модальные глаголы, использование артикля, предлогов и количественных слов, союзов и союзных слов, сложных предложений.

Уровни B1/B1+ и B2 подразумевают способность правильно употреблять в устной и письменной речи различные грамматические конструкции, разные формы простых и сложных предложений, а также грамматические средства обеспечения логической целостности высказывания. Примеры, подобранные для иллюстрации изучаемых грамматических явлений, взяты из образцов современной нормативной устной и письменной речи и позволяют увидеть реальное употребление этих явлений в современном языке.

Книга состоит из 2-х частей. В первой части систематически изложен грамматический строй английского языка. Правила и исключения, требующие отдельного внимания, вынесены на поля. Обобщающие таблицы, приведенные в конце каждого раздела, способствуют закреплению изученных грамматических явлений. Для того, чтобы облегчить работу с книгой, в конце книги приведен индекс грамматических терминов, используемых в книге.

Во второй части приведены практические задания, направленные на закрепление изученных грамматических явлений и позволяющие применять эти явления в письменной и устной речи. Кроме того, впервые включены задания и тесты,

ориентированные на подготовку к местным и международным экзаменам, в частности, разделов Writing (письмо) и Speaking (говорение) экзаменов IELTS и TOEFL.

В создании данной книги учтен и обобщен многолетний практический опыт авторов в преподавании английского языка. Надеемся, что “Key to Success” будет отвечать современным требованиям изучения английского языка и станет ключиком к успеху для лиц, изучающих язык.

Ваши предложения и замечания по улучшению качества книги просим направлять по адресам khumor@rambler.ru; kamil1@rambler.ru.

Зулхумор Мирзаева

Комил Джалилов

* * *



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi
<https://kitobxon.com/oz/asar/3506> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси
<https://kitobxon.com/uz/asar/3506> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно
найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/3506>